

PEDAGOGIK MAHORATNI MUSTAHKAMLASH VA ULARNING YUQORI DARAJADA BO‘LISHINI TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARI

Sobirova Dildora

*Andijon Davlat Chet Tillari Instituti Ingliz
tili va adabiyot fakulteti talabasi*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim jarayonida pedagogik mahoratni o'rni va ularning yuqori darajada bo'lishini ta'minlash, uning tarkibiy qismlari hamda o'qituvchining kasbiy komponentligini ta'minlash chora tadbirlari tahlil qilinadi. Jahon va O'zbek tajribasi asosida pedagogik mahoratni rivojlantirish omillari yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: Ta'lim jarayoni, pedagogik mahorat, komponentsiya, pedagogik ensklopediya, UNESCO, muomala odobi, psixologik sezgirlik, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

ANNOTATION

This thesis covers improving pedagogical skills during the educational process and describes their structure, main components, as well as the professional components of a teacher. It also discusses ways of developing pedagogical skills and analyzes them.

KEYWORDS: Educational process, pedagogical skills, components, pedagogical encyclopedia, UNESCO, international experience, psychological sensitivity, learning style, motivation, and innovation.

АННОТАЦИЯ

В данной работе рассматривается развитие педагогического мастерства в образовательном процессе, его структура, основные части, а также профессиональные компоненты деятельности учителя. Также анализируются пути развития педагогического мастерства.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Образовательный процесс, педагогическое мастерство, компоненты, педагогическая энциклопедия, ЮНЕСКО, международный опыт, психологическая чувствительность, стиль обучения, мотивация и инно.

Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog shaxsining kasbiy mahorati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ta'lim sifati bevosita o'qituvchining bilim, konikma va metodik tayyorligiga bog'liq. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim samaradorligi avvalo pedagogning professional salohiyati bilan belgilanadi.[1] Shu sababli pedagogik mahoratni mustahkamlash davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, kommunikativ qobiliyati va shaxsiy fazilatlarining

uyg'unligidir. Mahorat — bu bilim, ko'nikma va tajriba asosida faoliyatni yuqori saviyada, samarali va ijodkorlik bilan amalga oshirish qobiliyatidir. Pedagogik mahorat tushunchasiga turli adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya" da ta'rif quyidagicha izohlangan:

"O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

^Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.[2]

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekistonda pedagog kadrlar malakasini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda.[3] Pedagogning nutq madaniyati, muomala odobi, psixologik sezgirligi va o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi ham uning kasbiy mahorat darajasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Yuqori darajadagi pedagogik mahorat o'qituvchiga nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchining kasbiy bilimlari, metodik tayyorgarligi, kommunikativ qobiliyati va shaxsiy fazilatlarining uyg'unligidir.

Anton Makarenko pedagog shaxsining ichki madaniyati va mas'uliyatini mahoratning asosi sifatida ko'rsatgan.[4]

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, pedagogning muntazam o'qib-o'rganishi uning mahoratini oshiradi.

Finland ta'lim tizimida o'qituvchilar magistr darajasiga ega bo'lishi shart bo'lib, bu yuqori professional darajani ta'minlaydi.[5]

Milliy va jahon tajribasini uyg'unlashtirish. O'zbek pedagogikasida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari tarbiya masalalarida muhim manba hisoblanadi.[6]

PEDAGOGIK MAHORATNING YUQORI DARAJASINI TA'MINLASH OMILLARI

1. Pedagogik etika
2. Kommunikativ kompetensiya
3. Psixologik barqarorlik
4. Refleksiya qobiliyati

Lev Vygotskyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi o'qituvchining metodik mahoratini belgilovchi muhim konsepsiyadir.[7]

XULOSA

Pedagogik mahoratni mustahkamlash ta'lim sifatining asosiy omilidir. Jahon va milliy tajriba shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining uzluksiz rivojlanishi, innovatsion yondashuvi va ma'naviy barkamolligi yuqori natijalarga olib keladi.

Shu bois pedagogik mahoratni rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

1. malaka oshirish tizimini takomillashtirish;
2. raqamli texnologiyalarni keng joriy etish;
3. ilmiy tadqiqotlarni rag'batlantirish;
4. xalqaro hamkorlikni kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017.
2. Xoliqov.A.Pedagogik mahorat.Darslik.Toshkent 2011-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. – Toshkent, 2022.
4. Anton Makarenko. Pedagogicheskaya poema. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1988.
5. OECD. Education Policy Outlook 2019: Working Together to Help Students Achieve their Potential. – Paris: OECD Publishing, 2019.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
7. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.